

Tushgan testlar 08.04.26.

Anora Mahkamova jamoasi uchun

Tuzuvchi: Egamberdiyeva Husniya

O'qituvchi o'z fanini mukammal biladi, mavzularni ilmiy jihatdan to'g'ri va chuqur tushuntira oladi. Biroq dars jarayonida o'quvchilar uning gaplariga yetarlicha e'tibor qaratmaydi, ba'zida mensimasdan munosabat bildiradi va faol ishtirok etmaydi. Natijada dars samaradorligi pasayadi.

Ushbu vaziyatda o'qituvchida qaysi pedagogik sifat yetishmayapti?

- A) Avtoritar boshqaruv uslubi
- B) Kommunikativ kompetensiya**
- C) Predmet bo'yicha nazariy tayyorgarlik
- D) Refleksiv tahlil qobiliyati

O'qituvchi dars jarayonida o'quvchilarga muayyan hodisa yoki tushunchani bevosita misollar orqali emas, balki umumiy xulosalar, nazariy fikrlar va umumlashtirishlar asosida tushuntirdi. U alohida faktlardan ko'ra, ular orasidagi umumiy bog'lanish va qonuniyatlarni ochib berishga harakat qildi.

Ushbu holatda o'qituvchining qanday fikrlash usuli namoyon bo'lmoqda?

- A) Ijtimoiy tahlil
- B) Ongli yondashuv
- C) Didaktik tahlil
- D) Abstrakt tahlil**

Quyidagi metodlarning kamchiliklarini moslashtiring.

1. Loyiha metodi

2. Individual metod

A. Ko'p vaqt talab etadi va barcha o'quvchilarni bir xil darajada qamrab olish qiyin

B. O'quvchilar o'rtasida hamkorlik va muloqot yetarli shakllanmaydi

C. Nazorat qilish murakkab bo'lishi mumkin

A) 1-A, C; 2-B

B) 1-B; 2-A, C

C) 1-A; 2-B, C

D) 1-C; 2-A, B

O'quvchi jamiyatda mavjud muammolarni chuqur o'rganib, ularni turli dalillar, faktlar va isbotlar asosida tahlil qildi. U muammolarga yuzaki emas, balki asosli yondashib xulosa chiqardi.

Ushbu holatda qaysi tafakkur turi namoyon bo'lmoqda?

A) Obrazli tafakkur

B) Amaliy tafakkur

C) Tanqidiy tafakkur

D) Intuitiv tafakkur

Inson tafakkurining oliy ko'rinishi bo'lib, borliqni umumlashtirib, qonuniyatlar asosida chuqur va tizimli aks ettiradigan tafakkur turi qaysi?

A) Abstrakt tafakkur

B) Ilmiy tafakkur

C) Obrazli tafakkur

D) Amaliy tafakkur

Moslashtiring

1. Uy egasi xonasidagi kuygan lampochkani yangisiga almashtirdi.
2. Atmosferada karbonat angidrid miqdori ortib, iqlim o'zgarishiga sabab bo'lmoqda.
3. Shaharda havoning ifloslanishi va chiqindilar muammosi kuchayib bormoqda.

- A) Shaxsiy muammo
- B) Mahalliy muammo
- C) Global muammo

A) 1–A, 2–C, 3–B

- B) 1–B, 2–C, 3–A
- C) 1–A, 2–B, 3–C
- D) 1–C, 2–A, 3–B

O'qituvchi dars jarayonida mavzuni o'quvchilarga tushunarli, obrazli, jonli va qiziqarli tarzda bayon etdi, voqealar, misollar va tasvirlardan keng foydalandi.

Ushbu holatda o'qituvchi qaysi metoddan foydalangan?

- A) Suhbat metodi
- B) Hikoya metodi**
- C) Ma'ruza metodi
- D) Tushuntirish metodi

Kimyo fani o'qituvchisi darsni zamonaviy usulda tashkil etdi: slaydlar tayyorlab, mavzuni tushunarli va tizimli tarzda bayon qildi. O'quvchilar darsni diqqat bilan tingladilar, savollarga faol javob berdilar.

Ammo dars davomida bir o'quvchi DTM darajasidagi murakkab savol bilan murojaat qildi. O'qituvchi bu savolga aniq javob bera olmadi.

? Ushbu vaziyatda o'qituvchida qaysi qobiliyat yetarli darajada rivojlanmagan?

- A) Didaktik qobiliyat
- B) Akademik qobiliyat
- C) Tashkilotchilik qobiliyati
- D) Kommunikativ qobiliyat

O'quvchi darsda berilgan topshiriqni hech kimning yordamisiz mustaqil ravishda bajarib, o'zi xulosa chiqardi. Ushbu holat PIZA bosqichlaridan qaysisiga mos keladi?

- A) Guruhli bosqich
- B) Mahalliy bosqich
- C) Shaxsiy bosqich
- D) Global bosqich

Moslashtiring:

1. Tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish	A. O'quvchilarda ijtimoiy faollik va mas'uliyat hissini shakllantirish
2. Xavfsiz rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish	B. Sinfda o'zaro hurmat va xavfsizlik qoidalariga amal qilinadigan muhit yaratish
	C. O'quvchilarning bilimini reyting asosida baholash tizimini joriy etish

A) 1–A, 2–B

B) 1–B, 2–A

C) 1–A, 2–C

D) 1–C, 2–B

To'g'ri javob A

Moslashtiring:

1. O'quv jarayonini rejalashtirish	A. O'quvchilar bilimini tahlil qilish natijalariga tayangan holda darsning keyingi bosqichlarini belgilash
2.. Ta'lim samaradorligini ta'minlash	B. Dars davomida o'quvchilarning faol ishtirokini rag'batlantirish va ularning qiziqishlariga tayanish
	C. Ta'lim tizimining huquqiy asoslari va me'yoriy hujjatlarini chuqur

A) 1–A, 2–B

B) 1–B, 2–A

C) 1–A, 2–C

D) 1–C, 2–B

To'g'ri javob A

Dars jarayonida 2 nafar o'quvchi o'zaro gaplashib, sinfdagi umumiy tartibni buzdi va darsga xalaqit bera boshladi. O'qituvchi ularga tanbeh bermasdan, savollar berish orqali ularni dars jarayoniga faol jalb qildi va diqqatini qayta tikladi.

Ushbu vaziyatda o'qituvchida qaysi kasbiy sifat yaqqol namoyon bo'lmoqda?

A) Pedagogik bilimdonlik

B) Pedagogik takt

C) Tashkiliy qobiliyat

D) Kommunikativ qobiliyat

O'qituvchi dars jarayonida mavzuga oid videorolik (kino) namoyish etdi. O'quvchilar diqqat bilan kuzatayotgan bir paytda, sinfdagi bir o'quvchi gaplashib, boshqalarga halaqit bera boshladi.

O'qituvchi darsni to'xtatmasdan, o'quvchiga qarab qo'lini yuziga yaqinlashtirib, "tinchlan" ishorasini berdi. O'quvchi darhol jim bo'lib, darsga qo'shildi.

Ushbu vaziyatda o'qituvchida qaysi pedagogik sifat yaqqol namoyon bo'lmoqda?

A) Pedagogik bilimdonlik

B) Pedagogik takt

C) Akademik qobiliyat

D) Tashkilotchilik qobiliyati

O'qituvchi o'quvchilarni mavzuni chuqurroq o'zlashtirish maqsadida sinf xonasidan tashqariga — o'rmonga olib bordi. U yerda o'quvchilar tabiiy muhitda turli o'simliklar bilan bevosita tanishdilar, ularni kuzatdilar va o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajarishdi.

Mazkur jarayonda bilimlar real sharoitda, amaliy faoliyat orqali mustahkamlandi.

Ushbu vaziyatda o'qituvchi qaysi metoddan foydalangan?

A) Amaliy metod

B) Ekskursiya metodi

C) Aralash metod

D) Tajriba metodi

O'qituvchi nazariy mavzuni zamonaviy taqdimot orqali real hayot bilan bog'lab, sodda va tushunarli tarzda bayon qildi. Shuningdek, mavzuga oid yangiliklarni ham kiritdi. Dars jarayoni qiziqarli kechgani sababli o'quvchilarda savollar paydo bo'ldi. Biroq o'qituvchi o'quvchilarda yuzaga kelgan savollarni e'tiborga olmadi va darsni davom ettirdi.

Ushbu vaziyatda o'qituvchi qaysi didaktik tamoyilga amal qilmagan?

A. Ilmiylik

B. Izchillik

C. Onglilik va faollik

D. Tizimlilik

Biologiya o'qituvchisi darsni sinf xonasidan tashqarida tashkil etdi. U o'quvchilarni bog'ga olib chiqib, o'simliklarning turlari va ularning hayotiy shakllari bilan bevosita tanishtirdi. Dars davomida o'quvchilar kuzatishlar olib borishdi va yakunda o'qituvchi ularga uyga vazifa sifatida ko'rilgan obyektlar bo'yicha hisobot tayyorlashni topshirdi.

Ushbu holat qaysi dars turiga kiradi?

A) Nazariy (ma'ruza) darsi

B) Amaliy mashg'ulot darsi

C) Ekskursiya darsi

D) Aralash dars

Biologiya o'qituvchisi dars jarayonida o'quvchilarni bog'ga olib chiqdi. U yerda o'quvchilar o'simlik turlari va ularning hayotiy shakllarini bevosita kuzatish orqali o'rgandilar. Dars yakunida o'qituvchi ularga kuzatuv natijalari asosida hisobot tayyorlashni topshirdi.

Mazkur dars qaysi turga kiradi?

A) Yangi bilim berish darsi

B) Bilimlarni mustahkamlash darsi

C) Bilimlarni amaliyotda qo'llash darsi

D) Takrorlash va umumlashtirish darsi

@A NORAMAHKAMOVA1